

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI O'QITISH JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Muminova Nigora Adashevna

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Jurakulova Shaxlo Anvarovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflarda dars o'tish foydalanish usullari, hamda ularning samaradorligi

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiya, metodlar, interfaol metod, "6x6x6" metodi

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashtirish jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".¹ Xususan, xalq ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar: 2019-yilning 29-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi

¹ <https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar>

tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonga imzo chekdi. Hujjatda xalq ta’limi tizimida mavjud muammolar va ularni yechish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, konsepsiya tizimda islohotlar amalga oshiriladigan 9 ta yo‘nalish va 48 ta ko‘rsatkichni belgilab bergan.² Hozirgi paytda pedagogika fanida pedagogik texnologiyalar, ta’lim texnologiyasi, o‘qitish texnologiyasi iboralari tez-tez tilga olinmoqda. Bugungi kungacha pedagogik adabiyotlarda, ta’lim muammolariga oid ma’ruzalar, rasmiy hujjatlarda «yangi pedagogik texnologiya», «ilg‘or pedagogik texnologiya», «zamonaviy ta’lim texnologiyasi» ga oid tushunchalari hali ham bir qolipga tushirilmagan, entsiklapediyalarda izohlanganicha yo‘q, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko‘pgina ta’riflari mavjud.³ Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida uchinchi ming yillikda davlatning ta’lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o‘qituvchi faoliyati yangilanadi, o‘quvchi va talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, isonparvarlik tuyg‘ulari tizimi shakllantiriladi.¹ Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.⁴ Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Interfaol metodning nima ekanligini bilishimiz uchun avvalo metod va uning turlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lmog‘imiz lozim.

Ta’lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo‘lgan vazifalarii amalga oshirishda qo‘llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o‘z ichiga oladi. **Metod** – (grekcha “metodos” so‘zidan olingan bo‘lib, yo‘l, ahloq usuli ma’nolarini anglatadi).⁵ Tabiat va ijtimoiy hayot

² O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son <https://lex.uz/docs/-5013007>

³ <https://hozir.org/oshirish-instituti-v2.html?page=6>

⁴ Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi. Nasaf. 2000.

⁵ Tolipov O. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: "Fan". 2005.

hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi. Ta'lim metodi o'z o'rnida 3 turga bo'linadi: passiv, faol ham interfaol metodlar. Passiv metodlar turkumiga ma'ruza, hikoya, namoyish, kitob bilan ishlash, mashq va boshqalar misol bo'ladi. Faol metodlarga aqliy hujum, o'rgimchak to'ri, klaster, videousul, videotopishmoq, charxpalak va shu kabilar kiradi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Interfaol ta'lim metodlariga “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” ,”6x6x6”va boshqalar.

«6x6x6» metodi. Ushbu metod yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. «6x6x6» metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rta tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhlar bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.⁶ «6x6x6» metodining afzallik jihatlari quyidagilardir: guruhlarning har bira'zosini faol bo'lishga undaydi; ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi; guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil kiladi; ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdsk, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi. Eng muhimi, mashg'ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi. Ushbu metodni 5, 6, 7 va hatto 8 nafar o'quvchidan iborat bo'lgan bir necha guruhlarda

⁶<http://shuhratbek.uz/6x6x6-metodi/>

ham qo'llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o'rtasida «6x6x6» metodi qo'llanilganda vaqtni ko'paytirishga to'g'ri keladi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham birmuncha ko'p vaqt talab etiladi. So'z yuritilayotgan metod qo'llanilayotgan mashg'ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo)ni muhokama qilish imkoniyati mavjud. «6x6x6» metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirilmaligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. «6x6x6» metodi yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi: O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stul qo'yib chiqadi. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadilar. O'quvchilarni guruhlarga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan ob'ekt (masalan, kema, to'lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga kema, to'lqin, baliq, delfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o'quvchi o'zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi. O'quvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlarga muayyan topshiriqni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi. O'qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga etgach, o'qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishiga aloxida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlarga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq yechimlari)ni muhokama qilinadi va yakuniy xulosaga kelinadi. Pedagogik texnologiya o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini

ta'minlaydi. O'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Har bir metodning qo'llanish mumkin bo'lgan o'z o'rnini hamda yutuqlari mavjud. Yuqorida keltirib o'tilgan metodlar ko'proq boshlang'ich sinflarda qo'llaniladi. Metodlar muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar>
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. <https://hozir.org/oshirish-instituti-v2.html?page=6>
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi. Nasaf. 2000.
5. Tolipov O. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: "Fan". 2005.
6. <http://shuhratbek.uz/6x6x6-metodi/>